



CLASSIFICATION OF CRIMES COMMITTED WITH HOOLIGAN MOTIVES

Rapikov Khursanali Yuldashbayevich

Namangan Region prosecutor of Papsky district

rapiqovhursanali@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17052882>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Guilt, hooliganism,
responsibility, punishment,
crime, public order, criminal-
legal crime, description,
public danger, directed
against.

ABSTRACT

This article analyzes issues related to the classification of crimes committed on the motive of hooliganism. In addition, the article examines the opinions of scholars on the analysis of crimes committed with the motive of hooliganism.

КЛАССИФИКАЦИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ СОВЕРШАЕМЫХ ПО МОТИВУ ХУЛИГАНСТВА

Рапикова Хурсанали Юлдашбаевича

Наманганская область прокурора Папского района

rapiqovhursanali@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17052882>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Вина, хулиганство,
ответственность,
наказание, преступление,
общественный порядок,
уголовно-правовое
преступление, описание,
общественная опасность,
направленное против.

ABSTRACT

В данной статье анализируются вопросы, связанные с классификацией преступлений, совершаемых по мотиву хулиганства. Кроме того, в статье изучены мнения ученых по анализу преступлений, совершаемых с мотивом хулиганства.

BEZORILIK MOTIVI BILAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR TASNIFI

Rapiqov Xursanali Yuldashboyevich

Namangan viloyati,

Pop tumani prokurori

rapiqovhursanali@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17052882>



ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Ayb, bezorilik, javobgarlik, jazo, jinoyat, jamoat tartibi, jinoyat jinoiy-huquqiy, tavsifi, ijtimoiy xavflilik, qarshi qaratilgan.

ABSTRACT

Mazkur maqolada bezorilik motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlar tasnifiga doir masalalar tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada bezorilik motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlar tahlili yuzasidan olimlarning fikirlari ham o'rganilgan.

Bezorilik motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarga to'xtaladigan bo'lsak, bunday jinoyatlarni boshqa jinoyatlardan farqlashda, aybdor qasdining mohiyati va nimaga qaratilganidan, sodir etilgan harakatning motivi, maqsadi va muayyan holatlarga e'tibor berish lozim hisoblanadi. Amaliyotda bezorilik motivini aniqlash va boshqa motivlardan (rashk, qasd va hk.) farqlash mezonlarini bilmaslik ko'pgina jinoyatlarning noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumining "Bezorilik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2002-yil 14-iyundagi Qaroriga ko'ra, bezorilik, asosan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar ya'ni, shaxsni urish-do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish bilan bog'liq holda sodir etilib, uning oqibatida sodir etiladigan ijtimoiy qilmishlar qo'pol ravishda jamoat tartibiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bunda aybdor o'zining harakatlari bilan jamoat tartibini buzayotganligini anglashi lozim hisoblanadi¹, deb ko'rsatiladi.

Ushbu jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi shaxsni urish-do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish harakatlardan birortasining mavjudligi bezorilik jinoyatini O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 183-moddasida ko'rsatilgan mayda bezorilikdan farqlash uchun asos hisoblanadi. Jumladan, mayda bezorilik jamoat joylarida uyatli so'zlar aytish, so'kinish, behayo xatti-harakatlar qilish, odamlarga shilqimlik qilish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqdan-ochiq mensimaslik harakatlarida namoyon bo'lsa, bezorilik jinoyatida aybdor harakatlari bevosita jamoat tartibi, shaxs sog'ligi, o'zganing mulki kabi Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlarga tajovuz qilishda ifodalanadi.

Bezorilik uchun belgilangan jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining 277-moddasi, bezorilik oqibatida qasddan odam o'ldirish JK 97-m. 2-k. "l" bandi hamda badanga og'ir shikast yetkazish JK 104-m. 2-k. "e" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bezorilik, bezorilik oqibatida sodir etiladigan boshqa jinoyatlarda bevosita aybdor shaxsda bezorilik motivining mavjudligi ushbu jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi.

¹"Bezorilik ishlari buyicha sud amaliyoti tugrisida"gi 2002-yil 14-iyundagi karor, 1-band, 1-kism. <https://lex.uz/docs/1452654?ONDATE=14.06.2002%2000>



Bezorilikka ta'rif berar ekan, bezorilik - ko'pchilikning tinchligini buzish, odamlarni bezdiruvchi xatti-harakat. Shaxsning jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish va jamiyatga oshkora hurmatsizlik ko'rsatishdan iborat xatti-harakati². Bezorilik – ijtimoiy tartibni, ko'pchilikning tartibini buzayotganligini anglashi lozim hisoblanadi³, deb ko'rsatiladi ilmiy adabiyotlarda.

Bezorilik jinoyati va mayda bezorilik huquqbuzarligi o'rtasidagi farqni aniqlashda, ushbu jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi shaxsni urish-do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish harakatlari bor, yoki yo'qligiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Ulardan birontasining yo'qligi harakatni mayda bezorilik deb baholashga asos bo'ladi. Jumladan, mayda bezorilik jamoat joylarida uyatli so'zlar aytish, so'kinish, behayo xatti-harakatlar qilish, odamlarga shilqimlik qilish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqdan-ochiq mensimaslik harakatlarida namoyon bo'lsa, bezorilik jinoyatida aybdor harakatlari bevosita jamoat tartibi, shaxs sog'ligi, o'zganing mulki kabi Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlarga tajovuz qilishda ifodalanadi.

Alohida qayd etib o'tish joizki, bezorilik jinoyati JKning 277-moddasida alohida belgilangan bo'lsada, boshqa moddalarida aybni og'irlashtiruvchi holat sifatida keladigan bezorilikdan qanday farqi mavjud. Alohida moddalarda keladigan bezorilik, 277-modda dispozitsiyasini qamrab olishi, yoki ololmasligida ham olimlar o'rtasida turli fikrlar mavjud.

Bu haqida Gluzdakov A.V. ham bezorilik, bezorilik oqibati va bezorilik harakatlari o'rtasidagi farqni ajratish qiyindir⁴, deb hisoblaydi. Shu sababli bu to'g'risida olimlar fikri 2 guruhga bo'lingan bo'lib, Xegay L.V.ning fikricha, bezorilik jinoyati subyektiv tomonining zaruriy belgisi bu - aybdorda bezorilik motivining mavjudligidir.

Bezorilik insoning shaxsi, uning mulki, sha'ni, qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyat hisoblanib, odatda u hech qanday sababsiz sodir etiladi yoki arzimagan sababdan kelib chiqadi. Masalan, jabrlanuvchining bezoriga chekish uchun sigaret bermasligi yoki jamoat transportida unga joy bo'shatmasligi va hk. bezori hayolida jabrlanuvchi tomonidan unga nisbatan qilinayotgan "adolatsizlik"deb baholanadi⁵.

Borzenkov G.N.ning fikricha, bezorilik motivi bezorilik jinoyati tarkibiga kirmaydi, bezorilik motivi murakkab motiv hisoblanib, o'zida chek-chegarasiz egoizmni tashkil etadi⁶. Borisov V. va Kuts V.lar bezorilik motiviga aybdorning o'zini, o'z xulqini jamoatchilik tartibiga va jamoatchilik munosabatlariga qarshi qo'yish, atrofdagilarga nisbatan o'zini baland tutish, sinizm, joxillik badjahllik, janjalkashlik, o'zining qo'polligini namoyish etish va bema'nilarcha mardlik sifatlarini namoyon etishga intilishdir, deb ta'rif berishadi⁷. Ametov A. esa, jamoat

²O'zbek tilining izohli lug'ati. Begmatov E. va b. Madvaliyev A. taxriri ostida. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. - Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti. 1-tom. 2006. –B.212.

³"Bezorilik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2002-yil 14-iyundagi qaror, 1-band, 1-kism. <https://lex.uz/docs/1452654?ONDATE=14.06.2002%2000>

⁴Глуздаков А.В.. Криминологическое исследование хулиганства и преступлений, совершенных из хулиганских побуждений. Дис. ...канд.юрид.наук. М., 2004. – С. 31.

⁵ Иногамова Л.В., Парог А.И., Чучаева А.И. Уголовное прова Российской Федератсии. Учебник. Особенная част. Контракт Инфра-М, Москва 2008 год. –С.417.

⁶ Борзенкова Г.Н., Комиссарова В.С. Курс уголовного права. Т.3.М., 2002. –С.127.

⁷ Борисов В.И., Кус В.Н.. Преступления против жизни и здоровья: вопросы квалификации. — Харьков., 1995. – С.12



tartibini buzishga qaratilgan bezorilik motivi odatda, ketma-ketsizlik, mantiqsizlik va tartibsizlik xarakteriga egadir.

Bunday xulq ko'pgina hollarda shaxsiy nafratlanish munosabatlari yoki jabrlanuvchining noqonuniy harakatlariga bog'liq bo'lmasdan, to'satdan o'z-o'zidan vujudga keladi. Bakunov P.ning fikricha, bezorilik bu jamiyatda o'rnatilgan axloq-odob qoidalarini, inson sha'nini mensimaslik kabi tushunchadir. Unda o'ta xudbinlik, zo'rlik ishlatish orqali o'zining haqligini isbotlashga urinish kabi jamoat tartibini qo'pol ravishda buzadigan sifatlar mujassamlashgan bo'ladi⁸.

M.H.Rustamboyevning fikricha, bezorilik motivi, ya'ni, jamiyatga ochiqdan-ochiq hurmatsizlik motivi bo'lib, u o'zini atrofdagilarga g'ayriqonuniy qarshi quyishda, o'zining alohida shaxsiyatini namoyon qilishda, dag'al kuchni namoyish etishda aks etadi⁹. Masalaga A.V.Naumov va P.S.Matishevskiylarning quyidagi fikri bilan yakun yasaymiz. Bezorilik motivi - jamoat tartibini qo'pol ravishda buzishga qaratilgan sho'xlikdir. Fikrimizcha, bezorilikka berilgan ta'riflar orasida Rustamboyevning ta'rifi ancha mukammaldir.

Demak, xulosa sifatida qayd etish lozimki, bezorilik jamiyatda umumqabul qilingan qoidalarni mensimaslik, boshqalardan o'zini ustun sezish, buni atrofdagilarga ham bildirib qo'yish maqsadida duch kelgan narsaga shikast yetkazish orqali sodir etiladigan, xudbinlik, maqtanchoqlik, bir so'z bilan aytganda inson bezorining ruhiyatini namoyon qiluvchi harakatdir.

Fikrimizcha, bezorilik jinoyatida har doim ham motiv ham, maqsad ham mavjud bo'ladi. Ya'ni motiv o'zini kimligini ko'rsatib qo'yish bo'lsa, maqsad bu yo'lni bezorilik orqali amalga oshirishdir. Bundan ko'rishimiz mumkinki, bu holatda maqsad shaxsni bezorilikka yo'naltiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, biz bezorilik motivi, bezorilik jinoyatidan farq qiladi degan fikrga qo'shilmaymiz.

Chunki, bezorilik motivi aslida bezorilik jinoyatining ijtimoiy xavfliroq ko'rinishi bo'lib, qonun chiqaruvchi uning ijtimoiy xavfliligini inobatga olib, alohida moddalarda aks ettirishni lozim topgan. Bular aslida bitta holatni ifoda etadi. Masalan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyati (JKning 112-moddasi) va o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etiladigan jinoyatlarning bir-biridan farqi ham aynan ijtimoiy xavfliligida. Biz o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishning belgilarini izlaganda, shu bandning orginal moddadagi ta'rifiga qaraymiz.

Tergov va sud jarayonidan ma'lum bo'lishicha, bezorilik motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarda aybdor shaxsning sababsiz, arzimagan narsadan urish-janjal chiqarishi yoki tez qizishib ketishi yoxud boshqalar oldida o'zini kimligini ko'rsatish (avtoritet uchun) kabi holatlari uchraydi.

Agar biz bezorilik jinoyatining obyekti jamoat tartibi deb qaraydigan bo'lsak, avvalo jamoat joy deganda qayerlarni tushunmok kerak? degan masalasiga to'xtalib o'tish lozim hisoblanadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasining birorta qonun, kodeks, Plenum qarori va boshqa adabiyotlarda "jamoat joyi tushunchasi borasida yagona to'xtamning mavjud emasligi

⁸Бакунов П. Айб жиноят субъектив томонининг зарурий белгиси сифатида. Ўқув қўлланма. Тошкент. «Адолат». 2006. –Б. 30.

⁹ Rustamboyev M.H.. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Tom 5 -Toshkent, 2011. –B.163.



ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muammo tug'diradi. Sababi, o'zbek tilinig izoxli lugatiga ko'ra, jamoat - bir to'da kishilar, haloyiq, ko'pchilik¹⁰dir, deb izoh beriladi.

Inogamova L.V.ning fikricha, bezorilik odamlar yo'q joyda ham sodir etilishi mumkin, muhimi qilmish shaxsiy motivlardan emas, balki bezorilik motividan kelib chiqqan bo'lishi lozim¹¹. Ivanov A. esa, bezorilik motivi nafaqat jamoat joylarida balki, u hech kim yo'q joy (cho'l, o'rmon, qirg'oq va b.)larda ham sodir etilishi mumkin.

Biroq, bezorilik u joylarda sodir etilishi uchun aybdor tomonidan sodir etilgan shaxsga yoki uning mulkiga qarshi bo'lgan tajovuz arzimagan sababdan kelib chiqishi lozim. Arzimagan sabab negizida ko'p hollarda mastlik holatidan so'ng aybdor shaxsda paydo bo'ladigan egoistlik hissi, o'zidan ketish, o'zini ko'rsatish kabi harakatlar yotadi.

Bunda aybdor shaxs nafaqat jamoat tartibini, balki jabrlanuvchining jig'iga tegadigan shaklda sha'n va qadr qimmatini mensimaydi, jamoat intizomiga qarshi norozilik hissini ifodalab, jamiyat axloqiga qarshi chiqadi. Xakimov M.ning fikricha, agar shaxs o'z xatti-harakatlari bilan jamoat tartibini buzayotganligini, jamiyatga nisbatan ochiqdan-ochiq hurmatsizlik qilayotganini anglasa, uning bu qilmishi bezorilik sifatida baholanadi. Bu esa shaxsga qarshi jinoyatlarni nazarda tutuvchi moddalar bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi¹². Ammo bu degani bezorilikni sodir etish joyi ahamiyatga ega emas degan ma'noni anglatmaydi. Buni aniqlash obyektiv va subyektiv sabablarni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Fikrimizcha, shaxs agar odamlar ko'pchilik bo'lib turgan joyda o'zini ko'rsatib qo'yish uchun sababsiz yoki arzimagan sabab bilan jinoyat sodir qilsa uning qilmishini bezorilik deb baholash to'g'ri bo'lar edi.

Plenum qarorida keltirilishicha oilada qarindosh-urug', tanish-bilishlarga nisbatan sodir etilgan haqoratlash, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish kabi harakatlar, agar ular shaxsiy kelishmovchilik natijasida kelib chiqqan bo'lsa yoxud jabrlanuvchining nojoiz xatti-harakatlari oqibatida sodir etilsa, shaxsga qarshi jinoyat deb baholanadi. Biroq, biz ko'rib chiqqan jinoyat ishi materiallarining bir qanchasida qarindosh-urug', tanish-bilish masalalari jinoyatni kvalifikatsiya qilishda inobatga olinmagan. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda bezorilik xatti-harakatlari va jamoat tartibini buzish o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi, agar ular o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lmasa, u holda shaxsning qilmishi JKniq sog'liq yoki mulkka qarshi qaratilgan boshqa moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi aytib o'tiladi.

Ivanov A.ning fikricha, bezorilik motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlar kommunal turar-joy, jamoat joylari (restoran, stadion, kinoteatr, shahar maydonlari va boshqalar)da albatta, jinoyat ishtirokchisi bo'lmagan, notanish uchinchi shaxslar ko'z ungida amalga oshiriladi¹³- deb ta'kidlab o'tadi.

Biz yuqoridagilarga asosan, xulosa qilishimiz mumkinki, bezorilik harakatlari begona, notanish shaxslarga bo'ladimi, tanishlarga qarshi sodir etiladimi, agar u bezorilik jinoyatining

¹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. Akobirov S.F. va b. Ma'rufov Z.M. tahriri ostida. – Moskva. Rus tili nashriyoti 1981. 1-tom. –B.271.

¹¹ Иногамова Л.В., Рарог А.И., Чучаева А.И.. Уголовное право Российской Федерации. Учебник. Особенная част. Контракт Инфра-М, Москва 2008. –С.417.

¹² Хакимов М.. Безорилик учун жазо. Хукук ва бурч. –№6. 2013. –С.50.

¹³ Ионов А.Л. мотив хулиганство и иных преступлений, совершенных из хулиганских побуждений. Российский следовател. Научно-практическое и информационное издание.издательская группа Юрист. 2013, – С.16.



tarkibini bersa JKning 277-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Sababi shaxs ba'zan o'zini ko'rsatish uchun yo'l qidiradi, buning uchun oilada avtaritetni mustahkamlash maqsadida ham yaqin qarindoshiga nisbatan jamoat joyida, yoxud boshqa shaxslar ko'z o'ngida bunday jinoyatni sodir qilishi mumkin.